



UO‘K: 371.3:004.057:007.5

**MAKTAB O‘QUVCHILARNI ONLAYN TAHDIDLARDAN HIMOYA QILISH
UCHUN TA’LIMDA ETIK YONDASHUV**

Mastura Maxmudjon qizi Mo‘minova

Farg‘ona Davlat Universiteti tayanch doktoranti

E-mail: mastura.muminova.1992@mail.ru

ORCID ID: 0009-0009-1404-8586

Telefon: +99891 110 16 44

Annotatsiya: Mazkur maqola "Maktab o'quvchilarni onlayn tahidlardan himoya qilish uchun ta'lilda etik yondashuv" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarining onlayn muhitda duch keladigan xavf-xatarlaridan himoya qilishda etik yondashuvlarning ahamiyatini ko'rib chiqadi. Bugungi kunda internet va axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi, yoshlar uchun yangi xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda, shu jumladan kiberbullying (*kiberbullying-internetdagi bezorilik*), onlayn firibgarlik, fishing va shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi. Ushbu maqolada, ta'lim muassasalarida o'quvchilarga onlayn xavfsizlikni o'rgatish, axloqiy qadriyatlarni singdirish va xavfsiz onlayn xatti-harakatlarni rivojlantirishda etik yondashuvlarning o'rni muhokama qilinadi. Maqola, o'quvchilarining axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishiga yordam beruvchi metodlarni, o'qituvchilarining va ota-onalarining roli, hamda ta'lim tizimidagi axborot xavfsizligi dasturlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarga onlayn muhitda axloqiy qarashlarni shakllantirish va ularni axborot texnologiyalaridan mas'uliyatli foydalanishga o'rgatish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: axborot xavfsizligi, ta'lim jarayoni, pedagoglar, innovatsion texnologiyalar, o‘qitish usullari, kiber tahdidlar, ta'lim dasturlari.

**ЭТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ОБРАЗОВАНИЮ ДЛЯ ЗАЩИТЫ
ШКОЛЬНИКОВ ОТ ИНТЕРНЕТ-УГРОЗ**

Аннотация: Данная статья посвящена теме "Этический подход в образовании для защиты школьников от онлайн-угроз". В статье рассматривается важность внедрения этических принципов в образовательный процесс для защиты учащихся от различных угроз, возникающих в интернете. Современное развитие информационных технологий привело к увеличению числа онлайн-угроз, таких как кибербуллинг, мошенничество и кража личных данных. В статье акцентируется внимание на важности обучения школьников безопасности в интернете, внедрения этических ценностей и формирования

безопасного онлайн-поведения. Рассматриваются методы, которые помогают учащимся правильно использовать информационные технологии, а также роль педагогов и родителей в этом процессе. Важность разработки программ информационной безопасности в учебных заведениях и рекомендации по обучению школьников ответственному и этичному использованию технологий также рассматриваются в статье.

Ключевые слова: информационная безопасность, образовательный процесс, учителя, инновационные технологии, методы обучения, киберугрозы, образовательные программы.

AN ETHICAL APPROACH TO EDUCATION IS ESSENTIAL TO PROTECT SCHOOLCHILDREN FROM ONLINE THREATS.

Abstract: This article focuses on the "Ethical Approach in Education to Protect Schoolchildren from Online Threats." It discusses the importance of incorporating ethical principles into the educational process to safeguard students from various online dangers. With the rapid development of information technologies, threats such as cyberbullying, online fraud, and identity theft have become more prevalent. The article emphasizes the need to teach students about internet safety, instill ethical values, and promote responsible online behavior. It explores methods that encourage students to use information technologies appropriately and underscores the vital role of teachers and parents in this educational effort. Additionally, the article highlights the necessity of developing information security programs within educational institutions and offers recommendations for teaching students the responsible and ethical use of technology.

Keywords: information security, educational process, teachers, innovative technologies, teaching methods, cyber threats, educational programs.

KIRISH.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi, shu jumladan internet tarmog‘ining keng tarqalishi, o‘quvchilarining onlayn muhitda turli tahdidlarga duch kelishiga sabab bo‘lmoqda [4,9]. Kiberbullying (internetdagi bezorilik), onlayn aldanishlar, shaxsiy ma’lumotlarning o‘g’irlanishi, soxta axborot va boshqa xavf-xatarlar yoshlarning ruhiy va jismoniy salomatligiga zarar etkazishi mumkin [1,3,7]. O‘quvchilarni ushbu tahdidlardan himoya qilishda ta’lim muassasalarining, o‘qituvchilarining va ota-onalarning muhim roli bor [8,10]. Shunday ekan, maktab ta’limida onlayn xavfsizlikni ta’minalash uchun etik yondashuvlarni qo‘llash zaruriyati kundan-kunga dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda [2,5,6]. Ushbu maqolada o‘quvchilarining onlayn tahdidlardan himoya qilinishini ta’minalash uchun ta’limda etik yondashuvlarni joriy etishning ahamiyati, metodologiyasi va amaliyotdagi qo‘llanilishi masalalari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI.

Onlayn tahdidlarga qarshi kurashish va o‘quvchilarni internet xavfsizligiga o‘rgatish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. R. Smith (2020) "Kiberbulling va uning

o‘quvchilarga ta’siri” nomli maqolasida Kiberbulling ning o‘quvchilarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini, shuningdek, o‘quvchilarga onlayn xavfsizlikni o‘rgatishning muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, maktablar, o‘quvchilarga internetda xavfsiz harakat qilishni o‘rgatish orqali onlayn tahdidlarga qarshi samarali kurashishi mumkin. Shuningdek, J. Williams (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, o‘qituvchilarning va ota-onalarning internet xavfsizligi bo‘yicha bilimlari va ularni yosh avlodga o‘rgatishdagi roli alohida ta’kidlangan. Uning fikriga ko‘ra, maktablarda internet xavfsizligi bo‘yicha maxsus kurslar tashkil qilish o‘quvchilarning onlayn xavfsizligini ta’minlashda samarali vosita bo‘ladi.

Yana bir qator tadqiqotchilar, masalan, M. Garcia va L. Lopez (2021), etik yondashuvlarning o‘quvchilarning onlayn harakatlariga qanday ta’sir qilishini o‘rganganlar. Ularning fikriga ko‘ra, axloqiy va etik qadriyatlarni yoshlari ongiga singdirish, ularga onlayn muhitda mas’uliyatli va ehtiyyotkorlik bilan yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, ta’limda axborot texnologiyalarining xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan bir qancha amaliy tadqiqotlar, masalan, S. Johnson (2018) tomonidan olib borilgan ishlar, onlayn tahdidlardan himoya qilishda ta’lim muassasalarining axborot xavfsizligi siyosatining ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu siyosatlar, o‘quvchilarni onlayn muhitda ehtiyyotkorlik va ongli ravishda harakat qilishga o‘rgatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari birgalikda qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida 500 nafardan ortiq o‘quvchi va 40 nafar o‘qituvchi ishtirok etdi. O‘quvchilarga onlayn tahdidlar va internet xavfsizligi haqidagi bilimlarini o‘lchash uchun anketalar tarqatildi. Shuningdek, o‘qituvchilarga onlayn xavfsizlik va etik yondashuvlar bo‘yicha o‘z bilimlari va tajribalari haqida so‘rovnama yuborildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi maktabda o‘quvchilarga internet xavfsizligini o‘rgatish jarayonida etik yondashuvlarni qo‘llashning samaradorligini aniqlash edi. Anketalar va so‘rovnomalar natijalari asosida o‘quvchilarning aksariyati onlayn tahdidlarga duch kelganliklarini va ularning aksariyati onlayn xavfsizlikni o‘rganishga qiziqish bildirganliklarini ko‘rsatdi. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi esa o‘quvchilarga onlayn tahdidlardan qanday himoya qilishni o‘rgatishning muhimligini ta’kidladilar. Shuningdek, ko‘pchilik o‘qituvchilar onlayn xavfsizlikka oid maxsus kurslar va treninglar o‘tkazishni istaganliklarini bildirdilar.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktablarda o‘quvchilarga etik yondashuvlar orqali onlayn xavfsizlikni o‘rgatish samarali bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar onlayn tahdidlarga qarshi kurashishda o‘qituvchilardan olgan bilimlarini amaliyatda qo‘llashni boshladilar. Tadqiqotga ko‘ra, o‘quvchilarning axborot texnologiyalaridan mas’uliyatli foydalanish darajasi yuqorilagan. Bundan tashqari, etik yondashuvlarni ta’lim jarayoniga kiritish, o‘quvchilarda internetda ehtiyyotkorlik va mas’uliyatli munosabatlarni shakllantirishga yordam berdi. Maktab o‘quvchilari uchun onlayn tahdidlar va internet xavfsizligi haqidagi bilimlarini baholashga

yordam beradigan 15 ta savoldan iborat anketa. Anketada har bir savol uchun uchta javob varianti mavjud va har bir javobni statistik tahlil qilindi (1-jadval)

1-jadval

O‘quvchilarni onlayn tahdidlar va internet xavfsizligi haqida bilimlarni baholash anketasi

Nº	Savollar	Ha	Yo‘q	Bilmayman
1.	Internetda shaxsiy ma'lumotlaringizni baham ko‘rish xavfli ekanini bilasizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
2.	Siz internetdan foydalanish qoidalari, ya’ni “internet etikasi” haqida bilasizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
3.	Agar kimdir sizdan onlayn orqali shaxsiy ma'lumot so‘rasa, qanday javob berasiz?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
4.	Onlayn aldanish (fishing) haqida bilasizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
5.	Siz internetdagи shaxsiy ma'lumotlaringizni tez-tez ularshib turasizmi ?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
6.	Ta’lim jarayonidagi onlayn hayotingizga tahdid bor deb hisoblaysizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
7.	Agar siz onlayn tarzda shubhali linkni topsangiz, undan foydalanasizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
8.	Maktab fanlari tarkibiga internetdan xavsiz foydalanish haqidagi fanni kiritishni ma’qullaysizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
9.	Parolingizni hech kimga bermaslikni bilasizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
10.	Agar internetda sizga noma'lum shaxs xabar yuborsa, uni ochasizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
11.	Internetda kimdir sizni qo‘rqtgan yoki tahdid qilganmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
12.	Internet xavfsizligi bo‘yicha birorta kurslar yoki o‘quv materiallarini bilasizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
13.	Sizga onlayn tarzda sababsiz qo‘llab-quvvatlaydigan notanish profil murojaat qilganmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
14.	Internetda o‘zingizni xavfsiz his qilish uchun aniq birorta usulni bilasizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
15.	Internetdan xavsiz va etik qoidalarga muvofiq foydalanish bo‘yicha ko‘proq bilishni xohlaysizmi?	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>

O‘qituvchilar tomonidan olib borilgan maxsus treninglar va mashg‘ulotlar, o‘quvchilarni onlayn tahdidlardan himoya qilishda ko‘proq ishtirok etishga undadi. Aksariyat o‘quvchilar o‘zlarini internetda yanada xavfsiz his qilishni boshladilar. Shuningdek, ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasida internet xavfsizligi bo‘yicha hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ota-onalarning onlayn xavfsizlikka oid bilimlari va tajribalari o‘quvchilarning onlayn xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun, maktablarda ota-onalar bilan hamkorlikda maxsus treninglar o‘tkazish lozim (2-jadval)

2-jadval

O‘quvchilarning internet xavfsizligi haqida bilim darajasini baholash savolnomasi

No	Savol	Javob 1: Ha	Javob 2: Yo‘q javob	Javob 3: Bilmayman
1.	Internetda shaxsiy ma'lumotlaringizni baham ko‘rish xavfli ekanini bilasizmi?	75%	15%	10%
2.	Siz internetdan foydalanish qoidalari, ya’ni “internet etikasi” haqida bilasizmi?	85%	10%	5%
3.	Agar kimdir sizdan onlayn orqali shaxsiy ma'lumot so'rasa, qanday javob berasiz?	60%	25%	15%
4.	Onlayn aldanish (phishing) haqida eshitganmisiz?	70%	20%	10%
5.	Siz internetdagi shaxsiy ma'lumotlaringizni tez-tez ulashib turasizmi ?	50%	30%	20%
6.	Ta’lim jarayonidagi onlayn hayotingizga tahdid bor deb hisoblaysizmi?	90%	5%	5%
7.	Agar siz onlayn tarzda shubhali linkni topsangiz, undan foydalanasizmi?	65%	20%	15%
8.	Maktab fanlari tarkibiga internetdan xavsiz foydalanish haqidagi fanni kiritishni ma'qullaysizmi?	80%	10%	10%
9.	Parolingizni hech kimga bermaslikni bilasizmi?	55%	25%	20%
10.	Agar internetda sizga noma'lum shaxs xabar yuborsa, uni ochasizmi?	65%	15%	20%
11.	Internetda kimdir sizni qo‘rigitgan yoki tahdid qilganmi?	70%	15%	15%
12.	Internet xavfsizligi bo‘yicha birorta kurslar yoki o‘quv materiallarini bilasizmi?	40%	40%	20%

13.	Sizga onlayn tarzda sababsiz qo‘llab-quvvatlaydigan notanish profil murojaat qilganmi?	60%	25%	15%
14.	Internetda o‘zingizni xavfsiz his qilish uchun aniq birorta usulni bilasizmi?	85%	10%	5%
15.	Internetdan xavsiz va etik qoidalarga muvofiq foydalanish bo‘yicha ko‘proq bilishni xohlaysizmi?	75%	15%	10%

Olingen natijalarni tahliliy jihatdan quyidagi kategoriyalarga ajratish mumkin:

- **O‘quvchilarning internet xavfsizligi haqida bilim darajasi:** Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarning aksariyati shaxsiy ma’lumotlarni baham ko‘rish xavfli ekanini biladi va internetda xavfsizligini ta’minalashda mas’uliyatlari yondashadi. Aksariyat o‘quvchilar shaxsiy ma’lumotlarini berishda ehtiyojkorlikni ko‘rsatadilar va kiber tahdidlarga qarshi kurashish borasida ongli ravishda harakat qilishadi.

- **Internet xavfsizligi bo‘yicha o‘quvchilarning bilim darajasi:** O‘quvchilarning ba’zilari, ayniqsa onlayn aldanishlar (fishing) va noto‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlash bo‘yicha yetarli bilimga ega emas. Bu internet xavfsizligi bo‘yicha yanada chuqurroq ta’lim berish zarurligini ko‘rsatadi.

- **Ota-onalar va o‘qituvchilar bilan hamkorlik:** O‘quvchilarning ko‘pchiligi o‘qituvchilardan va ota-onalardan yordam so‘rashni xohlaganini bildirgan, bu esa onlayn xavfsizlik bo‘yicha o‘qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Xulosa. Onlayn tahdidlardan himoya qilish uchun ta’limda etik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarga internet xavfsizligini o‘rgatishda etik qadriyatlarni kiritish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Shuningdek, maktablarda o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarurati ham aniqlandi. Kelajakda ta’lim tizimida onlayn xavfsizlikni ta’minalashga qaratilgan dasturlarni yanada takomillashtirish, o‘quvchilarga axborot texnologiyalaridan mas’uliyatlari foydalanishni o‘rgatish va ularning onlayn muhitda axloqiy qarashlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev, I. (2022). Maktab ta’limida internetdan foydalanish madaniyatini oshirish. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
2. Davidson, J. (2014). Digital Ethics: The Impact of Technology on Compromise and Decision Making. *Ethics and Information Technology*, 16(1), 23-32.
3. Floridi, L. (2016). Information Ethics: On the Philosophical Foundations of the Philosophy of Information. Oxford: Oxford University Press.

4. Ismatullaev, A. (2020). Kiberxavfsizlik va uning ta’limdagi ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
5. Jenson, M. (2020). Ethical Considerations in Online Education: A Framework for Educators. International Journal of Teaching and Learning in Higher Education, 32(1), 23-34.
6. Karimova, D. (2019). Ta’limda kiberetika va onlayn xavfsizlik. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi.
7. Mavlonov, A. (2023). O‘qituvchilarga onlayn xavf-xatarlar haqida ma’lumot berishning ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Pedagogika Fanlari Akademiyasi.
8. Ruziboev, E. (2021). Internet xavfsizligi: Yoshlar va Maktab o‘quvchilari uchun strategiyalar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.
9. Wang, H. (2018). Digital Citizenship Education: A Critical Approach to Internet Safety. Journal of Online Learning Research, 4(2), 165-184.
10. Wang, X., & Chen, T. (2019). Understanding Online Safety: A Review of Recent Literature on Cryptocurrency and Cybersecurity. Journal of Cybersecurity, 4(1), 45-62.